

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA TO‘YINGAN
UGLEVODORODLAR MAVZUSINI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH**

Kabilova Umida Rasuljan qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Yuldashova Gulxumar Rustam qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ta‘lim muassasalari oldida jamiyat uchun komil insonlarni tarbiyalash vazifa bo‘lib, pedagoglardan o‘quvchilarda fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etiladi. O‘quvchi yoshlarga to‘yingan uglevodorodlar mavzusini o‘qitishda uglevodorodlarni asosiy manbalarini tashkil qilishni zamonaviy usul va uslublar asosida bilim berish orqali o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati yaratish vazifasi qo‘yiladi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, rivojlanish, uglevodorodlar, organik kimyo, vazifa, usullar.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida to‘yingan uglevodorodlar, botqoqlik gazi, karbon kislota tuzlarining elektrolizi, nomenklatura va uning turlari, galogenlash, sulfolash, sulfoksidlash, sulfoxlorlash, nitrolash reaksiyalari, kreking jarayoni surkov moylariga oid mavzularni o‘quvchilarga o‘qitish jadallik bilan o‘zgarib borayotgan yoshlar ruhiyatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazish, izlanuvchanlik, ijodkorlik, o‘z ustida ishlash ularni fan cho‘qqilarini zabt etishlari uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish uchun xizmat qiladi.

To‘yingan uglevodorodlarning izomeriyasi, tabiiy manbalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, almashinish va parchalanish reaksiyalari va mexanizmi,

oksidlanish reaksiyasi, sanoatda va xalq xo'jaligida ishlatilishi va boshqa ko'rsatkichlari haqida bilimga ega bo'lish har bir ta'lim olayotgan o'quvchi uchun zarurdir. Chunki organik kimyo olamshumul fandır. Shunday qilib, to'yingan uglevodorodlar mavzusini o'qitish orqali organik kimyo sanoatida vujudga keladigan ayrim muammolarni yechishda olgan bilimlar katta ahamiyat kasb etadi.

To'yingan uglevodorodlar mavzusini o'qitishda o'quvchilarga zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Kimyo sanoati sifat jihatdan tabiiy mahsulotlardan ustun turuvchi sun'iy materiallar yaratadi. Bunday materiallar tufayli kishilar mehnati ham, qishloq xo'jaligi xomashyosi ham tejaladi. Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarf qilinadi. Shuningdek, kimyo sanoati tufayli ishlab chiqarishni kombinatlashtirish istiqbollari yaraldi.

Chunonchi, ko'mir, neft, gaz singari yoqilg'i xomashyolaridan energiya hosil qilishda ham, kimyo mahsulotlari (benzin, parafin) olishda ham foydalanilishi energetika-kimyo kombinatlari qurishga olib keldi.

Umumta'lim maktablarida uglevodorodlarning tabiiy manbalariga oid mavzularini Klaster usulida o'qitilish metodikasining amaliy ahamiyati shundaki, o'quvchilar orasida barcha o'qitiladigan fanlardan Vatanga va Respublikamiz yer osti boyliklariga oid ko'nikmalarni shakllantirish natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- Respublikamiz yer osti boyliklari haqidagi tushuncha va tasavvurlar o'quvchilar dunyo qarashini kengaytirib, bilim doirasini kengaytiradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi;

- O‘quvchilarda ijodkorlik, izlanuvchanlik tuyg‘ularini oshirib, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini tarbiyalaydi;
- O‘quvchilarni ilm olishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularda ma’rifatparvarlikni tarbiyalaydi;
- O‘quvchilar pedagogik texnologiyalar orqali o‘tilgan mavzularni o‘zlari darsda faol qatnashib o‘z faoliyat davrida bajargan ishlarini klaster metodida qo‘llaydi;
- O‘quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti davrida neft uning tarkibiy qismlari, antidetonatorlar, benzin, kerosin va boshqalar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

O‘qitishda innovatsion texnologiyaning klaster metodini o‘quv jarayonida tanlash va qo‘llashni o‘rgatish, o‘qitishning qonuniyat va prinsiplari, o‘qitishning maqsadi va vazifalari, to‘g‘risida bilimlarini innovatsion texnologiyalar orqali o‘rgatish yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitish jarayonining yuqori sifatini ta’minlash bilan bir vaqtda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlariga e’tibor berilsa, har tomonlama jismonan rivojlangan, yuksak salohiyatli, mustaqil fikrlay va ish yurita oladigan, intellektual, iqtidorli shaxslarni tarbiyalash uchun imkoniyat yaratiladi.

Shuning uchun ham ta’lim muassasalari oldida jamiyat uchun komil insonlarni tarbiyalash vazifa bo‘lib, pedagoglardan o‘quvchilarda fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etiladi. O‘quvchi yoshlarga to‘yingan uglevodorodlar mavzusini o‘qitishda toshko‘mir, neft va tabiiy gazlar uglevodorodlarni asosiy manbalarini tashkil qilishni zamonaviy usul va uslublar asosida bilim berish orqali o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1.M.Nishonov, Sh.Mamajonov, V.Xujaev. Kimyo o‘qitish metodikasi.
Toshkent-2002

2. L. V. Golish. Talimning faol usullari : mazmuni, tanlash, amalga oshirish, Toshkent. , O‘rta maxsus kasb-hunar talimi markazi. 2011-yil.

3. I. N. Borisov , “ Kimyoni o‘qitish metodikasi ” Toshkent., “ O‘qituvchi “ 1996-yil.

4.R.J.Ishmuxammedov “Innovatcion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” Toshkent 2004-yil.

